

2/2023,
mart-aprel
(№ 00064)



HUDUDLARDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MAQSADLARNI BELGILASHNING TASHKILIY USULLARI

Karshiyev Adxam Anvarovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti (PhD). Samarqand, O‘zbekiston. adkhamkarshiev@yahoo.com

ORCID: 0009-0000-8842-5561

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss2/i46

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizm sohasini rivojlanishida strategik maqsadlarini belgilashning ahamiyati bayon etilgan. Bunda Samarqand viloyati turizm sohasi misolida strategik rivojlanish yo‘nalishlari hamda muallifning viloyatda turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish uchun uchta asosiy tamoyil va sektor oldida turgan asosiy muammolar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: rejalashtirish, strategiya, turizm, ziyorat, ilm, destinatsiya, kommunikatsiya, texnologiya, inklyuziv, innovatsiya.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПОСТАНОВКИ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В РЕГИОНАХ

Каршиев Адхам Анварович

Докторант (PhD) Самаркандский институт экономики и сервиса. Самарканд, Узбекистан.

Аннотация

В данной статье описаны основные стратегические принципы развития индустрии туризма. В данной статье выделены направления стратегического развития и три основных авторских принципа комплексного развития туристической отрасли региона и проблемы, стоящие перед отраслью на примере туристической отрасли Самаркандской области.

Ключевые слова: планирование, стратегия, туризм, паломничество, наука, инновация, коммуникация, технология, инклюзив, инновация.

ORGANIZATIONAL METHODS OF SETTING STRATEGIC GOALS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE REGIONS

Karshiev Adkham Anvarovich

PhD researcher at the Samarkand institute of economics and service. Samarkand, Uzbekistan.

Abstract

This article describes the main strategic principles of the development of the tourism industry. This article provides, the directions of strategic development and the author's three main principles for the comprehensive development of the tourism industry in the region and the problems facing the sector are highlighted on the example of the tourism industry of Samarkand region.

Key words: planning, strategy, tourism, pilgrimage, science, destination, communication, technology, inclusive, innovation.

Kirish

Turizm sohasini rivojlantirish, uni yangi bosqichlarga olib chiqish, turistik salohiyat va imkoniyatlarimizdan maksimal darajada foydalanish borasida keng qamrovli ishlar amalga

oshirilmoqda. Shuningdek, sohani rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari ham takomillashtirilib borilmoqda.

Turizm sohasida juda ko’plab ilmiy ishlarning mavjudligiga qaramasdan, ushbu yo’nalish bo’yicha ilmiy munozaralar ko’p. Ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy dunyoda ushbu hodisaning o’rni va rolini, o’ziga xos xususiyatlarini va chegaralarini aniqlash muammolariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Shu sababli, turizm sohasi asoslari va uni rivojlanishida strategik maqsadlarini belgilash, muammolarni o’rganish juda dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Turizm sohasining umumiy asoslari Al-Smadi H.M., Buzrukova M., Janzakov B., Ilieş A., Grama V., Ilieş D.C., Csobán Vargáné K., Dávid L.D.lar asarlarida o’z ifodasini topgan. Turizm sohasini o’rganayotgan mustaqil davlatlar olimlari orasida Pardayev M., Sazonov T., Batalina M. ni alohida ko’rsatib o’tish lozim. Ular o’z tadqiqotlarida turizmning nazariy asoslarining tahlilini ushbu hodisaning shakllanishi va rivojlanishining xorijiy tajribasini umumlashtirish asosida amalga oshirganlar.

Pardayev M. va boshqalar (2000) tomonidan turizm talabga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida iqtisodiy faollikning o’sishi, xalqaro va ichki bozorlarda iste’molchi daromadlarining oshishi, bo’sh vaqt yaratilishiga zamin yaratuvchi hayot tarzining segmentatsiyalashuvi: iste’molchilarning sayohatlarga nisbatan xohish va hatti harakatlari va boshqalar keltirilgan.

M.Batalina (2007) tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlarda bunday amaliyot Rossiya federatsiyasida mavjudligi, turizm sohasi iqtisodiyotning turli xil sohalari bilan kesishishi, bularga sanoat, transport, infratuzilma, qishloq xo’jaligi va boshqalar kirishi ko’rsatib o’tilgan.

COVID-19 pandemiyasi davrida turizmni rivojlantirish, epidemiyadan keyingi davrda turizmni jonlantirish bo’yicha ko’plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo’lib, ularda COVID-19 ta’siri ostida yangi dunyo turizmi modeli va tendensiyalari ishlab chiqilgan.

A.N.Norcheyev (2020) pandemiyadan keyingi vaqtda turizmni tezda oyoqqa turg’azib olish, aviachipta narxlarini pasaytirish, mehmonxonalar va restoranlarda xizmat sifatini oshirish, ananaviy turistik markazlarimiz bo’lgan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xivadagi mehmonxonalarni modernizatsiya qilish emas, balki turistik resurslarga boy bo’lgan Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Farg’ona vodiysida kichik shinam 3 -4 yulduzli mehmonxonalarni qurishni rag’batlantirish kerakligi bo’yicha ilmiy mulohazalar keltirgan.

A. Ocharov, M. Malkina (2021) tomonidan COVID-19 ning turizm sektoriga ta’siri va misli ko’rilmagan oqibatlarida Yevropada va butun dunyoda faollik pasayganligi va uni qayta tiklash istiqbollari atroflicha e’tibor qaratilgan.

M.Zakirova (2021) tomonidan pandemiya sharoitida turizm sohasidagi hamkorlik masalalariga to’xtalib o’tilgan. Davlatlarda yuzaga kelayotgan iqtisodiy hamda siyosiy vaziyatga baho berilib, hozirgi kunda boshqa sohalar kabi turizm sohasiga ham katta talofat yetkazayotgan COVID-19 pandemiyasining ta’sir kuchi haqida bayon etilgan. Shuningdek mazkur favqulodda holatda turizmni rivojlantirish yo’llari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Izlanishlarimiz natijasida turizm sohasini rivojlantirishda strategik maqsadlarni belgilash orqali ularning samaradorligini baholash usullarini o’rganish, respublikamizda turizm sohasiga qo’llash bo’yicha ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan. Olib borilgan tahlillar natijasida mamlakatda turizm sohasi orqali xorijiy valyutaning kirib kelishini rag’batlantirish, yangi ish o’rinlarini paydo bo’lishiga hissa qo’shishi va kambag’allikni qisqarish masalasi ko’rsatib berilgan. Shu bilan birga, sohaning rivojlanishiga to’siq bo’layotgan holatlar hamda ularni bartaraf etish yo’llari asoslab berilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida turizm sohasi jadal sur’atlar bilan o’sib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ko’plab mamlakatlar o’z aholisining ijtimoiy ne’matlar bilan ta’minlanishini yaxshilash vositasi sifatida turizm sohasi rivojlanishini rag’batlantiradi. Kuchli turizm sohasi qiymat zanjirida iqtisodiyot uchun yangi bandlik imkoniyatini taqdim etadi. Turizmi rivojlangan ko’plab mamlakatlar yangi asr turistlarining ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiy tuzilmalar va strategiyalarni butunlay o’zgartirdi. Turizmning rivojlanishi davlat organlarining koordinatsion hamkorligidan tashqari davlat-xususiy sektor sherikchiligini talab qiladi. Ushbu hamkorlik jarayonida investisiyalar oqimining oshishi natijasida, sohaga yangi texnologiyalar, kuchli mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati paydo bo’ladi.

Umuman olganda, turizm sohasi xorijiy valyutaning kirib kelishini rag’batlantiradi, yangi ish o’rinlarini paydo bo’lishiga hissa qo’shadi. Ya’ni turizm kambag’allikning qisqarishiga to’g’ridan to’g’ri ta’sir qiladi.

Turizm sohasi boshqa iqtisodiy faoliyat olib borish qiyin bo’lgan, masalan, ekologik nuqtai nazardan asrashni talab qiladigan hududlarda rivojlanishi mumkin. Bunday rivojlanish global barqaror rivojlanish mezonlariga to’liq javob beradi, shu bilan birga, mamlakat madaniy merosi, atrof muhiti, kasb hunar va boshqalarni asrashga xizmat qiladi. Albatta barqaror rivojlanishni amalga oshirish uchun jamiyat ham ekologiya, madaniy meros va boshqa an’analarni asrashga jiddiy yondashishi talab etiladi.

Butun jahon turizm tashkilotining (UNWTO) ma’lumotlariga ko’ra turistlar bu o’zlarining odatiy muhitidan uzoqda 24 soatdan ortiq hamda bir yildan kam muddat turgan hamda dam olish va boshqa maqsadlarni ko’zlagan insonlar hisoblanadi. Ekskursantlarga esa tashrif buyurish vaqti 24 soatdan kam bo’lgan insonlar kiradi. O’zbekiston Respublikasining “Turizm” to’g’risidagi qonuni ham turist va ekskursantlarga ta’rif berishda aynan shu ta’riflardan foydalanadi¹.

Xalqaro turizm	<ul style="list-style-type: none">•online-turagentlar va mobil dasturlar•turoperatorlar
Xalqaro transport	<ul style="list-style-type: none">•Xalqaro tashuvchilar
Ichki turizm	<ul style="list-style-type: none">•joyida xizmat ko’rsatish•mahalliy turagentlar va turoperatorlar
Mahalliy transport	<ul style="list-style-type: none">•avia va temiryo’l transporti•avto va daryo transporti
Joylashtirish	<ul style="list-style-type: none">•mehmonxonalar•boshqa joylashtirish vositalari
Turistlar xarajatlari	<ul style="list-style-type: none">•madaniy meros obyektlariga chiptalar•xaridlar, ovqatlanish va boshqalarga xarajatlar

Rasm. Turizm sohasida qiymat yaratish zanjiri

Iqtisodiy faollikning o’sishi o’zidan o’zi tadbirkorlik faolligini oshiradi va bu o’z navbatida xizmat safarlarining ko’payishiga zamin yaratadi. Xizmat safarlariga bir marta borgandan so’ng ko’pchilik insonlar o’sha destinatsiyaga endi dam olish va boshqa rekreatsiya maqsadlarida tashrif buyurishlari mumkin. Turizm sohasida talab va taklifni

tushunish uchun qiymat yaratilish zanjirini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Quyidagi rasmda turizm qiymat zanjiridagi manfaatdor tomonlar aks ettirilgan. Qiymat zanjirining chegaralari talabga ta’sir etuvchi omillarni o’zida aks ettirsa, o’rtadagi omillar taklifga ta’sir etadi. Bundan tashqari iqtisodiyotning holati, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy va texnologik omillar turistik faoliyatga kuchli ta’sir ko’rsatadi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlarda ko’plab yangi turizm shakllari paydo bo’lmoqda. Sayohatchilarning ekologik ong va eko harakatlarga bo’lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bunda sof ekologik turizmni rivojlantirishga ehtiyoj paydo bo’lmoqda. An’anaviy guruh turlardan mustaqil individual turlarga o’tish odatiy holga aylanmoqda.

1. Turdosh yo’nalishlarga nisbatan raqobat ustunligi. Yuqori daromadga ega turistlar odatda juda talabchan bo’ladi va sifati kafolatlangan xizmatlarni izlaydi. Turistik destinatsiyalar bu turdagi turistlarga narx differensiyasini keng qo’llaydi;

2. Turistik destinatsiyaning tegishli infratuzilma bilan qo’llab quvvatlanadigan alohida xususiyatlari: qo’shimcha tovar va xizmatlarning narxi va xarid qilish qulayligi, aloqa tezligi va boshqalarning mavjudligi destinatsiyada turizmning rivojlanishiga zamin yaratadi;

5. Gigiyena omillari: xavfsizlik va himoyalanganlikning salbiy taa’suroti talabga yomon ta’sir qilish mumkin;

Fikrimcha, turizm sohasida taklif bu iste’molchilarning sayohati davomida taklif etilayotgan tovar va xizmatlar majmuasi hisoblanadi. Bunda turizmdagi bozor taklifiga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

1. Turizm infratuzilmasi: zamonaviy kommunikatsiya vositalari, joylashtirish, destinatsiya infratuzilmasi, IT texnologiyalar bilan integratsiya darajasi;

2. IT bilan integrallashgan aloqa va marketing ta’minoti. Yangi va innovatsion turizm mahsulotlari hamda turistik tajriba;

3. Obyektlarda turizmning kompleks rivojlanganligi;

4. Iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan aloqasi: biznes, ta’lim, tibbiyot, turizm mahalliy ta’minotchilarning integratsiyasi va boshqalar.

Hozirgi kunda turizm sohasi bir birlik investitsiyalar bo’yicha eng yuqori bandlikni ta’minlovchi soha hisoblanadi. Bu sohada qiymat zanjiri turli qobiliyatga ega shaxslarni birlashtiradi. Turizm sohasi ming yillik rivojlanish maqsadlariga (MYRM), xususan, MYRM 1(kambag’allikni yo’q qilish), MYRM 3(gender tenglik), MYRM 7(ekologik barqarorlik) va MYRM 8(rivojlanish maqsadidagi global hamkorlik). Umuman olganla, turizmning rivojlanishi ming yillik rivojlanish maqsadlarining barchasiga erishishda yordam berishi mumkin. Turizmi rivojlangan ko’plab davlatlar bu maqsadlarni o’zlarining turizmni rivojlantirish strategiyalarida qabul qilishdi. Oldinlari turizmi rivojlangan davlatlar o’zlarining salohiyatini ko’tarish uchun innovatsion mahsulotlarga resurslarni sarflashgan. Turizmni oldindan rejalashtirish sohada daromadlarning keskin oshishiga, bandlik va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga olib keldi².

Turizmning yalpi ichki mahsulotdagi to’g’ridan to’g’ri hissasi aslida aholining sohaga sarflayotgan ichki xarajatlari va davlat tashkilotlari tomonidan xarajatlarni aks ettiradi. Bilvosita hissasi esa ish o’rinlari, davlatning kollektiv xarajatlari, turli sektorlar tomonidan sayohat bilan bog’liq turli tovar va xizmatlarning sotib olinishi kabilarni ifodalaydi.

Turizm sohasi joriy davrda pandemiya natijasida sezilarli o’zgarishlarga moslashishga majbur bo’lmoqda, o’z navbatida, mamlakatlar sohadan daromad olish strategiyalarini ham o’zgartirmoqda. Butun jahon iqtisodiy forumi va uning har yillik “Sayohat va turizm

² Pardayev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko’rsatish, servis va turizm sohasini rivojlantirish: muammolar va ularning echimlari. O’quv qo’llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2008. – B.133.

raqobatbardoshlik indeksi” hisobotiga ko’ra global jarayonlar sayohat va turizm sohasini quyidagilarda o’zgartiradi:

1. Administrativ to’siqlar insonlar harakatiga to’sqinlik qiladi: Administrativ to’siqlar, masalan, vizalar va boshqalar, turizm sohasining rivojlanishida katta to’siqlarni yaratadi. Oxirgi yillarda O’zbekiston hukumati elektron vizalar sxemalarini 100 dan ortiq mamlakatlarga ko’paytirdi va kutilganidek bu xorijiy sayyoxlarning mamlakatga oqib kelishini ta’minladi.

2. Siyosiy beqarorlik turistik oqimlarga kuchli ta’sir qiladi. Xavfsizlik bilan bog’liq turli hodisalarning ko’payganligi sababli, turistlar bugungi kunda destinatsiyaning xavfsizligiga ishonch hosil qilishni hojlashadi.

3. Eng yaxshi mutaxassislarni jalb qilishda qiyinchiliklar. Turizm sohasida kuchli mutaxassislarni jalb qilishda sezilarli muammolar mavjud. Sohaga doimiy ravishda bozor talablariga mos kuchli kadrlarni jalb qilish uchun ish beruvchilar universitetlar bilan hamkorlikda o’quv dasturlari ishlab chiqishlari zarur hisoblanadi.

4. Turistik talab tarkibidagi o’zgarishlar biznes strategiyalarga ta’sir qiladi, bu holatda, o’zgarayotgan demografik jarayonlarda, ya’ni o’rta sinfnning shakllanishi va daromadlarining o’sishi natijasida turizm sohasi yangi sayyoxlarni jalb qilish hisobiga daromad qilish va texnologiyalarni joriy etish mumkin.

5. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar, masalan, GPS, smartfonlar, onlayn tranzaksiyalarga ishonchning o’sishi turizm sohasini o’zgartirmoqda. Texnologiyalarning paydo bo’lishi korxonalarini xizmat ko’rsatish jarayonini qayta ko’rib chiqishni talab qiladi. Turistik faollikning o’sishi mahalliy yo’nalishlarda chiqindilarning ko’payishi, suv sarfining ko’payishi, madaniy meros obyektlarining holati yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Bu holatda yashil turizm tashkil qilinsa, turistlardan qo’shimcha pul to’lovi undirish hisobiga ekologik zararining oldini olish mumkin.

6. Infratuzilma investisiyalar hajmi, sohaning o’sish tezligidan ancha orqada bormoqda. Ya’ni, aeroportlar, avtomobil yo’llar, temir yo’llar va boshqa kommunikatsiya aloqalarining qurilishiga yoki modernizatsiya qilishiga nisbatan kam mablag’ ajratilyapti. Bu esa, o’z navbatida, turistlar uchun qo’shimcha navbatlar va boshqa noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Holat shunday davom etsa, sayohat qilish jarayoni yanada qiyinlashadi, shu bois, davlat va xususiy sektor o’rtasida kuchli hamkorlikning yo’lga qo’yilishi

Shu bilan birga, turizm sohasi kambag’allikka qarshi kurash uchun muhim hisoblanadi va bu quyidagilarda ko’rinadi:

1. Kambag’allar uchun tadbirkorlik imkoniyatining paydo bo’lishi, qishloq xo’jalik subyektlarini qo’llab quvvatlash, yangi turistik korxonalarining paydo bo’lishi, hunarmandchilik va madaniy tadbirlarning rivojlanishi natijasida yangi ish o’rinlarining yaratilishi kabilarni kiritish mumkin.

2. Aholining kam ta’minlanganlar qatlamlariga, turistlar va turistik korxonalaridan bojlarning undirilishi, bundan tashqari, egri soliqlardan tushumlar, ijara haqi va boshqalar hisobiga pensiyani moliyalashtirish imkoniyati paydo bo’ladi. Shu bilan birga, kuchli moliyaviy barqaror tashkilotlarning yaratilishi muhim hisoblanadi.

O’zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishdan asosiy maqsad xalqaro turizm raqobatbardoshlik indeksi bo’yicha top 50 talikka chiqish hisoblanadi. Aholi bandligi elastik ko’rsatkichi 0.65 dan 0.4 ga tushirilishi asosiy maqsadlardan biri bo’lishi lozim. Harakatlar rejasida, shuningdek, O’zbekistonning ulkan boyliklari, ya’ni tarixiy obidalar, diniy ahamiyatga molik joylar va milliy diqqatga sazovor joylarning keng doiradagi sayyohlik salohiyatini ro’yobga chiqarishning “Asosiy strategiyasi” muhim yo’nalishlar atrofida klasterlar ishlab chiqilishidan iborat.

Hukumat tomonidan 2019-2025-yillarga mo'ljallangan yangi turizm siyosati ishlab chiqilgan bo'lib, bu turizm sohasi rivojlanishi uchun zarur bo'lgan impuls bo'lib xizmat qiladi. Samarqand viloyatida turizmni jonlantirish va daromad olish uchun resurslarga muhtoj bo'lgan turli turizm aktivlari mavjud. Bu sayyohlarning demografik profilini yangi ziyoratchilar va bir kunlik sayohatchilar hisobiga o'zgartiradi.

Samarqand viloyatida bo'sh vaqtni band qilishga asoslangan turistik mahsulotlarni ilgari surish strategiyasiga e'tibor qaratilgan bo'lsada, viloyatga tashrif buyurishdan manfaatdor bo'lgan ishbilarmon sayohatchilarning ehtiyojlarini qondirish zarur hisoblanadi. Jahondagi yangi global tendensiyalar tibbiy yordam, muqobil terapiya va meditatsiyani o'z ichiga olgan sog'lomlashtirish hamda kurort turizmi sezilarli darajada o'sib borishini va yuqori xarajatli takroriy tashrif buyuruvchilarni jalb qilishini ko'rsatmoqda.

Davlat tomonidan mintaqada turizm infratuzilmasi loyihalarini uchta asosiy yo'nalishda rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda, xususan, xususiy investisiyalar, DXSh loyihalari va davlat loyihalari. Turizm infratuzilmasi loyihalarini o'z vaqtida ishlab chiqishni ta'minlash maqsadida turizm loyihalari jamg'armasini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash taklif etilmoqda. Samarqand viloyati turizmni rivojlantirish boshqarmasi yangi turizm siyosati asosida 2025-yilgacha 5 millionga yaqin sayyohni jalb etishni rejalashtirmoqda. Samarqand shahriga 2023-yildan 2028-yilgacha bo'lgan davrda 5 yil davomida 1100,0 mlrd.so'm kapital qo'yilmalar va investitsiyalar jalb etish mo'ljallanmoqda. Davlat investisiyalarning kamida 90 foizini xususiy sektordan olishni maqsad qilgan. Viloyatda smeta qiymati 1500,0 mlrd.so'm bo'lgan 35 ta istiqbolli loyihalarni o'z ichiga olgan loyihalar reyestri ishlab chiqilgan. Yangi turizm siyosati uchta yo'nalishga qaratilgan: qurilish uchun yer ajratish, imtiyozlar va soliq imtiyozlari.

Turizm soha sifatida iqtisodiyotning boshqa ko'plab tarmoqlari bilan chambarchas bog'liq. Turizm departamenti o'z maqsad va vazifalarini bajarish uchun boshqa organlar bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu yaqin koordinatsiyaga qaramasdan Turizm boshqarmasi o'z faoliyatida ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Sektor oldida turgan asosiy muammolar quyidagilardir:

1. Ma'lumotlarni to'plash, taqqoslash va tahlil qilishning yo'qligi, mijozlarga e'tiborning past darajada ekanligi. Turizmda muhim tarkibiy qismlarni har tomonlama o'rganish uchun ishonchli ma'lumotlar yetarli emas, masalan, sayohat maqsadi, qolish muddati, xarajatlari, destinatsiya joyi, sayohatchi turi va turmush tarzi segmentatsiyasi, chiptalar bilan tashrif buyurilgan yodgorliklar, mehmonxonalar ro'yxati kabilari bo'yicha ma'lumotlar bazasi shakllanmagan.

2. Turizm resurslarining past faolligi va turizm tajribasining yetishmasligi. Davlat o'zining turizm resurslarini hisobga olgani bilan soha samaradorligi pastligi sababli turli xil turizm loyihalariga mablag' ajratish qiyin hisoblanadi. Samarqandda turistlarning o'rtacha turish muddati 3 kundan oshmaydi.

3. Turizm infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan. Ayni paytda yaqinda rekonstruksiya qilingan Samarqand ayeroportida muntazam qatnovlar yetarli emasligi, mavjud infratuzilmalarning sifati hali hamon qoniqarsiz ekanligi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Infratuzilmani rivojlantirishda Samarqand bilan boshqa viloyatlarni bog'laydigan temir yo'l tarmog'ini yanada rivojlantirish, xususan, elektropoyezdlarni joriy etish muhim hisoblanadi. Afsuski, avtomobil transporti tizimi ham barcha asosiy turistik yo'nalishlar bilan yaxshi integratsiyalashgan emas. Davlat yuqori rentabellikdagi turistik mahsulotlar uchun infratuzilmani rivojlantirishi kerak, masalan, avtokruiz terminallari stansiyasi kabilarni qurish lozim. Mintaqada yo'llarni yaxshilashga ham e'tibor qaratish lozim. Qishloq landshaftlari,

qishloq joylarida ham turizm obyektlarini yaratish, ta’minot zanjiri integratsiyasini yo’lga qo’yish muhim hisoblanadi.

4. Turizmga xususiy sektor investisiyalarining kam jalb etilishi. 2026 yilga qadar turizm sohasida yuqori o’sishga erishish uchun xususiy korxonalar zarur investitsiyalarning to’qson foizini jalb qilishni maqsad qilishi kerak.

5. Samarali idoralararo muvofiqlashtirish va xususiy investorlarning imkoniyatlarini kengaytirish imkoniyatiga ega institutsional tuzilm. Samarqand viloyati Turizm departamenti yangi loyihalarni amalga oshirish uchun mutaxassislarini aniqlashi va tanlab olishi zarur. Bundan tashqari, rahbariyat tomonidan investorlarni va maqsadli mijozlarni jalb qilish uchun raqobatdosh ustunlikni yaratish uchun tegishli strategik siyosatga ega bo’lgan qo’llab-quvvatlovchi institutsional tuzilma yaratilishi kerak.

6. Xodimlar kvalifikatsiyasining asosiy ustunligi. Hozirgi vaqtda butun mamlakatda turistik gidlar, mehmonxona xodimlari va boshqalar bo’yicha muhim turizm ko’nikmalariga ega malakali ishchi kuchi etishmasligi yuz bermoqda. Bizning tadqiqotimizga ko’ra, mintaqadagi turizm sohasida ishchi kuchiga qo’shimcha ehtiyoj bo’lib, bu 10 mingdan ortiq malakali kadrlarni tashkil qiladi. Samarqand viloyatida ham sifatli xizmat ko’rsatish uchun bu muammoni hal etish zarur.

7. Mahalliy iqtisodiyot uchun past daromadlilik. Agar turistik faoliyat to’g’ri nazorat qilinmasa, mahalliy aholi foydasining sezilarli darajada chiqib ketishiga olib kelishi mumkinligi kuzatildi. Turizm loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichida mahalliy iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilish uchun xavfsizlik choralarini ko’rish kerak. Mahalliy aholi turistik faoliyatdan ish va ko’nikmalar shaklida maksimal foyda olishlari lozim. Samarqandda mahalliy aholini bandligini oshirish uchun tegishli ko’nikmalarga o’rgatish bo’yicha dasturlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq.

8. Texnologiyani o’zlashtirishning past darajasi. Raqamli texnologiya sayohatchilarning psixologik profilini shakllantiradi va tranzaksiyalarni soddalashtiradi. Mustaqil sayohat qiluvchilar yo’lda doimiy ma’lumotga ehtiyoj sezadi. Raqamli texnologiyalar turistlarni ob-havo, mahalliy sharoitlar, turar joy, boshqa foydalanuvchilar izohlari haqida so’nggi ma’lumotlar bilan ta’minlaydi, bu turistlarga sayohatlarini yaxshi rejalashtirishga yordam beradi. Sayohatchilarning talablarini qondirish uchun davlat sayohat va turizm sanoatida zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo’lishi kerak.

Samarqandni talabchan sayyohlar uchun maqbul manzilga aylantirishda mintaqada mavsumiylik va tabiiy geografik sharoitlardan kelib chiqib turizm aktivlari va infratuzilmasini qayta tiklash orqali turizmning afzalliklaridan butun yil davomida foydalanish mumkin. Hududda turizmdan daromadni, turistlarning qolish muddatini va qayta tashriflarni oshirish uchun talabchan tashrif buyuruvchilar ehtiyojlari qondirilishi kerak. Bu xizmat ko’rsatuvchidan ishtirokchi muhitga o’tishni, sifat kafolatini ta’minlash uchun ko’nikmalarni rivojlantirishni va xususiy investisiyalarni rag’batlantirishni talab qiladi. Barqaror o’sishni ta’minlash uchun barqarorlik omillariga qat’iy rioya qilish, me’moriy va tabiiy merosni saqlab qolgan holda inklyuzivlik turizmni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, biz Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirish konsepsiyasini taklif qildik. Quyidagilar konsepsiyaning tarkibiy qismlari hisoblanadi:

1. Maqsadlar. Turizm haqidagi tasavvurlar. Natijalar. Ko’rsatmalar.
2. Konsepsiyaning strategik yo’l xaritasi.
3. Konseptual yondashuvni ishlab chiqish: muammolarni hal qilish va maqsadlarga erishish strategiyalari.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi sarmoyadorlar uchun jozibador bo’lgan, qiziqarli yo’nalishlarga ega bo’lgan, tashrif buyuruvchilarni to’liq qoniqtiradigan va mehmondo’s

mahalliy aholini shakllantirish orqali turizm sanoatining o‘shishiga erishishdir. Bu uchta element bir xil darajada muhim va o‘zaro bog‘liqdir. Yo‘nalishlarning estetikasi sayyohlar kutganidan ham yuqori bo‘lishi lozim. Turistlar destinatsiyalar bilan bir qatorda mezbon aholi bilan ham bog‘liq bo‘lishi va ularni mezbon aholini iliqlik kutib olishi juda muhim. Turistlarning sayohatdan qoniqishi ularning boshqa yurtdoshlarini ham shu yerga kelishga undaydi.

Xulosa va takliflar

2028-yilga kelib Samarqand viloyatining turizm sohasida kutilayotgan o‘shish sur‘atlariga erishish, turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish uchun to‘rtta asosiy tamoyilga rioya qilish maqsadga muvofiq:

1) Inklyuziv o‘shish. Iqtisodiy o‘shish va rivojlanishni rag‘batlantirish, mahalliy darajada daromadlarni saqlash orqali mahalliy iqtisodni mustahkamlash, barcha qobiliyatli odamlarni jismoniy va virtual tarzda jalb qilish asosiy o‘rinni egallaydi. Turistlarning (keksalar, harakatchanligi cheklangan odamlar) va turli mamlakatlardan kelgan turistik obyektlarga teng kirishini ta‘minlash (barcha to‘siqlarini bartaraf etish) inklyuziv o‘shishni bildiradi.

2) Raqobatbardosh o‘shish. Mavsumiylikni bartaraf etish va turizmni rag‘batlantirish uchun innovatsion turizm mahsulotlarini rivojlantirish kerak. Bundan tashqari, investorlar uchun qulay muhit, ilg‘or tajribalarni joriy qilish va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni o‘rnatish lozim.

3) Barqaror o‘shish. Resurslarni boshqarish jarayonida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, biznes ehtiyojlarini mahalliy muhitga integratsiyalash, ta‘minot zanjirini integratsiyalash, jamoat transportidan foydalanishni rag‘batlantirish kabilarni amalga oshirish lozim.

4) Tabiatga hurmat: resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni boshqarish, tabiiy resurslarni muhofaza qilishni ta‘minlash shart. Viloyatda tabiatga asoslangan turizm va mas‘uliyatli dam olishni, barqaror hamda ekologik toza transport tizimini rag‘batlantirish maqsadga muvofiq. Turistik faoliyatning atrof-muhitga ta‘sirini hisobga olish va zararli oqibatlarni oldini olish juda muhim. Shu bilan birga, mahalliy bandlikni va o‘shishni rag‘batlantirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish, turistlarni muvozanatli taqsimlash, mavsumiylikni bartaraf etishda progressiv strategiyani ishlab chiqish uchun turli sohalardagi manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shibcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4095-sonli Qarori.

3. Pardayev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2008. –B.133.

4. Safarov, B., Al-Smadi, H.M., Buzrukova, M., Janzakov, B., Ilieş, A., Grama, V., Ilieş, D.C., Csobán Vargáné, K., Dávid, L.D. (2022). Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. *Sustainability*, 14, 7762. <https://doi.org/10.3390/su14137762>

5. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi.

6. CBI Ministry of Foreign affairs. <https://www.cbi.eu> sayti.

7. <http://unwto.org> sayti.